

YASHIL MAKON OZUQASI

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi

Norbutayev Sh

Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Qo'chqorov D

Navoiy viloyat Qishloq xo'jaligi boshqarmasi Sho'ba bo'shlig'i.

Xolmuradov Sh

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Yashil makon ozuqasi” tushunchasining mazmun-mohiyati va uning O‘zbekiston ekologik siyosatidagi o‘rni yoritiladi. Mavzuda ko‘chatlarni oziqlantirishda organik va mineral o‘g‘itlardan foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish hamda ekologik barqarorlikni ta‘minlash masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakatda amalga oshirilayotgan “Yashil makon” umumxalq loyihasi doirasidagi davlat qarorlari va amaliy ishlar o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari ushbu jarayonning nafaqat agrotexnik, balki ekologik va ijtimoiy ahamiyatini ham ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Yashil makon, ozuqa vositalari, organik o‘g‘itlar, mineral o‘g‘itlar, ekologik barqarorlik, davlat dasturlari, O‘zbekiston tajribasi.

Kirish. “Yashil makon ozuqasi” masalasi bugungi kunda nafaqat ekologlar va mutaxassislarining, balki keng jamoatchilikning ham diqqat markazida turibdi. Global iqlim o‘zgarishi, atmosferaning ifloslanishi va shaharlarning tezkor rivojlanishi sharoitida yashil hududlarni kengaytirish va ularni muntazam oziqlantirish masalasi inson hayot sifatini oshirishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Yashil makonlar, ya‘ni parklar, bog‘lar, daraxtzorlar, xiyobonlar va boshqa tabiiy hududlar havoni kislorod bilan boyitadi, chang va zararli gazlarni o‘zlashtiradi, inson ruhiyati va salomatligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, shuningdek, shaharlarning estetik qiyofasini ta‘minlaydi. Shu sababli yashil hududlarni oziqlantirish ilmiy jihatdan ham, amaliy nuqtayi nazardan ham dolzarb masaladir.

Asosiy qism.

Yashil makon ozuqasi tushunchasi daraxt va o‘simliklarning sog‘lom o‘sishi va barqaror rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan moddalar va tadbirlar majmuini anglatadi. Avvalo, suv yashil hududlarning hayot manbai hisoblanadi. Suv yetishmovchiligi barglarning sarg‘ayishiga, fotosintez jarayonining sekinlashishiga va oxir-oqibat o‘simliklarning nobud bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli O‘zbekiston sharoitida suvni tejash va samarali foydalanish juda muhim bo‘lib, tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etish eng samarali yechimlardan biri sifatida qaralmoqda. Suvdan tashqari, organik va mineral o‘g‘itlar ham yashil makon ozuqasining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Organik o‘g‘itlar — go‘ng, chirindi, kompost tuproq unumdorligini oshirib, foydali mikroelementlar bilan boyitadi. Mineral o‘g‘itlar esa azot, fosfor va kaliy kabi elementlarni ta‘minlab, ildizlarning mustahkamlanishi, barglarning tez o‘sishi va daraxtlarning hosildorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, agrotexnik tadbirlar — tuproqni yumshatish, begona o‘tlarni tozalash, zararkunandalarga qarshi kurashish ham yashil makonlarni oziqlantirishning ajralmas qismi sanaladi.

Innovatsion texnologiyalar, jumladan, biogumusdan foydalanish, issiqxonalar va gidroponika usullari esa jarayonni yanada samarali tashkil etishga imkon bermoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yashil hududlarni ko‘paytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yashil maskanlar, istirohat bog‘lari qancha ko‘p bo‘lsa, aholi ularda shuncha maroqli hordiq chiqaradi. Tabiat bilan uyg‘unlashgan yashillik insonning bahri dilini ochib, kayfiyatini ko‘taradi. Asosiysi, atrofdagi toza havo salomatlikka ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Shu bois, Prezidentimizning 2021 yil 30 dekabrda “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asosan 2022—2024 yillarda 186 ta tuman va shaharlarda jami 1278 gektar “yashil bog‘lar”, 184 ta tuman va shaharlardagi 306 ta ob'ektlardagi 1082 gektar maydonda yangidan “yashil jamoat parklari”ni barpo etish belgilangan.

Bugungi kunda mahalliy xokimiyat organlari tomonidan mazkur “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari”ga er maydonlarini ajratish, loyihasini ishlab chiqish, moliyaviy masalalarni hal etish ko‘rib chiqilmoqda. Mazkur ishlarga “O‘rmonloyiha” instituti xodimlari keng jalb etilgan.

Bu tashabbus ekologik barqarorlikni ta‘minlash, havo sifatini yaxshilash va iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan. Shu bilan birga, ekologiya strategiyalarida suvni tejash, ekologik toza o‘g‘itlardan foydalanish, zamonaviy sug‘orish texnologiyalarini keng joriy etish ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Hozirda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va ayrim viloyatlarda “Yashil hududlar markazi” tashkil etilib, aholi ishtirokida ko‘chat ekish va ularni parvarishlash ishlari olib borilmoqda. Toshkent shahrida esa yangi parklar va xiyobonlar uchun maxsus sug‘orish tizimlari o‘rnatilib, yashil hududlarni oziqlantirish jarayoni yanada samarali yo‘lga qo‘yilmoqda.

O‘g‘itlar tuproq unumdorligini ko‘tarishda, hosilni oshirishda juda kuchli omil hisoblanadi. Chunki o‘g‘itlar yordamida, eng awalo, tuproq gumus, azot va boshqa kul elementlar bilan boyiydi. Buning natijasida qishloq xo‘jalik ekinlari hosili ko‘payib, sifati yaxshilanibboradi. Ekinlardan olinadigan hosilning qariyb yarmi (ba‘zi hollarda 60-70% i) mineral o‘g‘itlar hisobiga olinadi. Aksariyat ekinlarda o‘g‘itqo‘yish bilan bog‘liq sarf-xarajat hosil bilan kamida 2—3 barobar ko‘lib qaytadi. O‘shirish va yaxshi natija berish uchun o‘simliklar juda ko‘p turli xil resurslarni talab qiladi. Va bu nafaqat issiqlik, quyosh nuri va suvning ko‘pligi. Unumdorligi past tuproqda, hatto ideal ob-havoda va namlikning optimal darajasida ham, unumdorligi past bo‘ladi. Va agar dastlab boy mikro va makroelemental tarkibga ega bo‘lgan joyi tanlagan bo‘lsangiz ham, keyin bir necha ekish davrlaridan keyin - va ba‘zan hatto 1 yil foydalanishdan keyin - tuproq tarkibi sezilarli darajada yomonlashadi. Biroq, unumdorlikni tiklash tezligi o‘simliklar tomonidan foydali birikmalarni qabul qilish tezligi bilan taqqoslanmaydi. Shuning uchun, agar sanoat miqyosida hosil etishtirishni maqsad qilinsa, qo‘shimcha oziqlantirishsiz kerakli xosil bermaydi. Va bu masalaga imkon qadar mas’uliyat bilan yondashish kerak bo‘ladi. Qo‘shimchalarni xar doim xam qo‘shavermaslik kerak, chunki har bir ekinning ozuqa moddalariga individual ehtiyoji bor. Tuproqning tabiatini ham hisobga olish kerak. Bundan tashqari, har xil turdagi qo‘shimchalar boshqacha ishlaydi. Shuning uchun, hech bo‘lmaganda, organik va mineral o‘g‘itlar o‘rtasidagi farq nima, qachon, qanday elementlar va qanday miqdorda qo‘llanilishini tushunish kerak bo‘ladi. O‘g‘itlarning kelib chiqishi va tarkibidagi farqlar Agrar o‘g‘itlashning deyarli barcha turlarini 2 ta katta guruhga bo‘lish mumkin: organik; mineral. Ular tarkibi, ishlab chiqarish usuli va natijada tuproqqa va etishtirilgan ekinlarga ta'sir qilish

xususiyati bilan farq qiladi. Organik (mahalliy) o'g'itlar. Har xil organizmlar (o'sirliklar va hayvonlar) qoldirlari va chiqindilaridan hosil bo'lgan o'g'itar organik o'g'itlar deyiladi. Organik o'g'itlarga: go'ng, go'ng sharbati, parranda qiyi, torf, saprofel, yashil o'dar, sanoatning organik chiqindilari, shahar chiqindilari, suv o'tlari va hokazolar kiradi. Organik o'g'itlarni qishloq xo'jaligida eng muhim ahamiyatlari ular to'liq o'g'itlar hisoblanadi. Chunki ulaming tarkibida ko'pchilik makro va mikroelementlar mavjud. Tuproq strukturasi yaxshilaydi, uning unumdorligini oshiradi. Tuproq haroratini ma'lum darajaga ko'taradi. - Tuproqni foydali mikroorganizmlar bilan boyitadi va ular uchun vazifasini o'taydi. - Organik o'g'itlar solingan maydonlar atrofida karbonat angidridgazi miqdori ortadi, bu esa o'simliklar ildizidan tashqari oziqlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Organik o'g'itlar o'mini mineral o'g'itlar, mineral o'g'itlar o'mini organik o'g'itlar bosolmaydi. Birinchi guruhdagi qo'shimchalar, nomidan ko'rinib turibdiki, toza organik moddalar, tabiiy ekotizimning bir qismidir. Organik o'g'itlarning eng keng tarqalgan turlari go'ng, qushlarning axlati, torf va boshqalar tuproq unumdorligini va uning yuqori qatlaminin tuzilishini samarali yaxshilaydi.

Mineral o'g'itlar- tarkibida o'simliklar uchun zarur oziq elementlari bo'lgan anorganik moddalar, asosan, tuzlar kiradi. Deyarli barcha mineral o'g'itlar kimyo sanoatida ishlab chiqariladi. Shuningdek, tabiiy tuzlar, mis, natriyli selitra (chili selitrasi), sanoat chiqindilari ham ishlatiladi. Mineral o'g'itlar 19-asrdan tarqala boshlagan. 20-asr o'rtalaridan mineral o'g'itlarni ishlab chiqarish va qo'llash tez o'sdi. Shungacha o'g'it sifatida, asosan, go'ng, kul va boshqa chiqindilar ishlatilgan. Mineral o'g'itlar tuproqqa (uning fizik, kimyoviy va biol. xususiyatlariga) kuchli ta'sir qiluvchi vositadir; ular tuproqni oziq elementlari bilan boyitadi, tuproq eritmasi reaksiyasini o'zgartiradi, mikrobiologik jarayonlarga ta'sir etadi va h.k. O'simliklar, asosan, ildizi orqali oziqlanishi tufayli Mineral o'g'itlar tuproqqa solinganda o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga, binobarin, dalalar, o'tloklarning umumiy biologik mahsuldorligiga faol ta'sir qiladi. Mineral o'g'itlar ekin hosilini oshiradi, sifatini yaxshilaydi: paxta, kanop, zigir va lub ekinlari tolasining texnologik xususiyatlarini, qand lavlagi, uzum tarkibidagi qand, kartoshkadagi kraxmal, dondagi oqsil miqdorini ko'paytiradi.

Shu bilan birga, yashil makonlarni oziqlantirishda muammolar ham mavjud. Eng katta muammo suv tanqisligi bo'lib, bu iqlimning kontinentallashuvi, yog'ingarchilikning kamayishi va Orol dengizi qurishi oqibatida yuzaga kelmoqda. Bundan tashqari, ayrim hollarda noto'g'ri o'g'itlash, zararkunandalarga qarshi kurash choralarining sustligi, begona o'tlarning ko'pligi ham yashil hududlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun qurg'oqchilikka chidamli daraxt turlarini ekish, biologik va organik o'g'itlardan keng foydalanish, suvni tejoychi texnologiyalarni keng tatbiq etish va aholining ekologik madaniyatini oshirish zarur. Ilmiy izlanishlar ko'rsatmoqdaki, to'g'ri oziqlantirilgan yashil hududlar nafaqat tabiatni muhofaza qiladi, balki inson salomatligi va iqtisodiy rivojlanish uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi.

Xulosa. "Yashil makon ozuqasi" tushunchasi O'zbekiston ekologik siyosati va barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas bo'g'ini sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli "Yashil makon" loyihasi shunchaki daraxt ekish jarayoni emas, balki ularni oziqlantirish, parvarishlash va uzoq muddat yashovchanligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmui ekanini ko'rsatmoqda. Bu jarayonda organik va mineral o'g'itlar, biologik preparatlar, tuproqni boyituvchi vositalar qo'llanilayotgani ekotizimni mustahkamlash bilan birga, tuproq unumdorligini oshirish, suv resurslaridan oqilona

foydalanish va iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan qarorlar va davlat dasturlari, jumladan, yiliga millionlab daraxtlar ekish hamda ularni sifatli ozuqa vositalari bilan ta'minlash tashabbuslari mamlakatning ekologik xavfsizligini ta'minlash, yashil hududlarni kengaytirish va aholi uchun sog'lom hayot makoni yaratishga xizmat qilmoqda. Demak, "yashil makon ozuqasi" nafaqat ko'chatlarning yashab qolishi uchun zarur agronomik chora, balki kelajak avlodga ekologik barqaror va yashashga qulay muhit qoldirishning ilmiy asoslangan kafolati sifatida qaralishi lozim. Shu bois bu tushuncha O'zbekiston ekologik siyosati va ilmiy-amaliy faoliyatining dolzarb yo'nalishi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sattorov J.S. Tuproqdagi oziq elem entlar zaxirasini saqlash va ko'paytirish usullari va rezervlari. Tashkent, Agroizdat, 2004. 18.
2. S.A. Azimboyev Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari T. "IQTISOD-MOLIYA" 2006
3. Sattorov J.S. Murakkab rel'ef sharoitidagi tuproqlarni agrokim yoviyharitalash uslubiyoti va o'g'itlardan samarali foydalanish. Toshkent, FAN, 2006.
4. <https://president.uz/oz/lists/view/7123>
5. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/blog/ozbekistondagi-yashil-makon-tashabbusi-bilan-hamnafas-bolib>
6. Хурсанов, Х., Шакаров, О., Пўлатов, О., & Шониёзов, Б. (2024). ТАМАКИ МАҲСУЛДОРЛИГИГА КЕМИРУВЧИ ТУНЛАМЛАРНИНГ ТАЪСИРИ ВА УЛАРГА ҚАРИШИ КУРАШИ. В SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM (Т. 3, Выпуск 4, сс. 116–121). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10907697>
7. Bozorov, K., & Shoniyozov, B. (2024). EROZIYANING DEHQONCHILIKKA KELTSIRADIGAN SALBIY OQIBATLARI. В ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE (Т. 3, Выпуск 16, сс. 39–43). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11124472>
8. Хурсанов, Х., Шакаров, О., Пўлатов, О., & Шониёзов, Б. (2024). КЕМИРУВЧИ ЗАРАРКУНАНДАЛАР БИОЭКОЛОГИЯСИ ВА ТАМАКИДА УЛАР ЗАРАРИНИ КАМАЙТИРИШ УСУЛЛАРИ. В SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM (Т. 3, Выпуск 4, сс. 122–127). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10907735>
9. Shoniyozov, B. K., Qozoqboyev, S., Qochqarov, I. R., Komiljonov, O., & Toshtemirova, S. J. (2024). O'SIMLIK LARNI PAST HARORATDAN HIMOYALASH TEXNOLOGIYASI. В MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE (Т. 3, Выпуск 4, сс. 157–161). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10902119>
10. Shoniyozov, B. K., Qozoqboyev, S., Komiljonov, O., Qochqarov, I. R., & Toshtemirova, S. J. (2024). INSONIYAT VA TUPROQ MALHAMASI. В THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES (Т. 3, Выпуск 6, сс. 57–61). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10902131>
11. Shoniyozov, B. K., Qozoqboyev, S., Qochqarov, I. R., Komiljonov, O., & Toshtemirova, S. J. (2024). UNIVERSAL PRODUCT "AMARANT XXI" O'SIMLIGIDAN YOG' AJRATIB OLIISH TEXNOLOGIYASI. В ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE (Т. 3, Выпуск 10, сс. 178–182). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10902084>

12. Ortikov, T., Shoniyozov, B., Makhmatmurodov, A., & Mashrabov, M. (2023). Influence of mineral and organic fertilizers on the properties of serozem-meadow soils, nutritional dynamics and productivity of amaranth. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 462, p. 02017). EDP Sciences.
13. Шониёзов Бобур, Ортиков Тулкин; „Внесение удобрений и формирование урожая амаранта,Актуальные проблемы современной науки,2,2,35-39,2022,Самаркандский филиал Ташкентского государственного аграрного университета
14. Shoniyozov, Bobur Kaldarboyevich; Ortiqov, To‘lqin Qo‘chqorovich; Usmonov, Ravshan; „Mineral va organik o‘g‘itlarni amarant yetishtirishda oziq moddalar balansiga ta’siri,Academic research in educational sciences,,Conference,659-664,2022,OOO «Academic Research»
15. Shoniyozov Bobur, Ortikov Tulkin; „INFLUENCE OF DOSES OF NITROGEN FERTILIZERS ON THE CHEMICAL COMPOSITION OF AMARANTH PLANTS,ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference,1,1,136-139, 2023, <https://doi.org/10.5281/zenodo.7593488>
16. Shoniyozov Bobur Kaldarboyevich, Turdiyev Umarjon Uchqun son, Ko‘chgarov Islam Rustam son, Toshtemirova Sarvinoz Jorabek daughter, Ismoilova Muxlisa Murtoza daughter; „PROSPECTS OF ORGANIC FERTILIZER PREPARATION FROM URBAN WASTE,EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.1 | SJIF = 5.685 www.in-academy.u,3,2,156-158,2023,<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p3-110>
17. Shoniyozov, BK; Ortiqov, BK; Usmonov, R; „INFLUENCE OF MINERAL AND ORGANIC FERTILIZERS ON THE PROPERTIES OF SEROZEM-MEADOW SOILS, NUTRITIONAL DYNAMICS AND YIELD OF AMARANTH Jilin Daxue Xuebao (Gongxueban)",Journal of Jilin University (Engineering and Technology Edition) ISSN,,1671-5497,2022,
18. Shoniyozov, Bobur Kaldarboyevich; Hoshimov, Farhod Hakimovich; Ortiqov, To‘lqin Qo‘chqorovich; Usmonov, Ravshan; „AMARANT YETISHTIRISHDA OZIQ MODDALAR BALANSIGA AZOTLI O‘G‘ITLARNING TA’SIRI,Academic research in educational sciences,,Conference,861-867,2022,OOO «Academic Research»
19. To‘lqin Qo‘chqorovich Ortiqov, Bobur Kaldarboyevich Shoniyozov, Raxshana Ravshanovna Sultanbekova; „AZOTLI O‘G‘ITLAR ME’YORLARINI AMARANT O‘SISHI VA RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA TA’SIRI,O‘ZBEKISTONDA AQLLI QISHLOQ XO‘JALIGINI JORIY ETISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI Xalqaro ilmiy –amaliy konferensiya,1,1,1137-1143,2023,
20. To‘lqin Qo‘chqorovich Ortiqov, Bobur Kaldarboyevich Shoniyozov, Raxshana Ravshanovna Sultanbekova; „MINERAL VA ORGANIK O‘G‘ITLARNI AMARANT O‘SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA TA’SIRI.",O‘ZBEKISTONDA AQLLI QISHLOQ XO‘JALIGINI JORIY ETISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI Xalqaro ilmiy –amaliy konferensiya to‘plami 2023-yil, 12-13-may",1,1,1160-1167,2023
21. Sultanbekova, R; Ortiqov, TQ; Shoniyozov, BK; „Azotli o‘g‘itlar me’yorlarining tuproqdagi mineral azot miqdoriga ta’siri. O‘zbekistonda agrar sohani innovatsion rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 5-6 oktabr, 2022 yil",Academic research in educational sciences (ARES),3,,665-668

22. Ортиков Т.К, Б.К.Шониёзов; ,"РОЛЬ УДОБРЕНИЙ В РОСТЕ, РАЗВИТИИ И УРОЖАЙНОСТИ АМАРАНТА",Journal of Agriculture & Horticulture,4,9,14-17,2023,<https://doi.org/10.5281/zenodo.8374760>
23. Shoniyozov, BK; Ortikov, TK; Usmanov, R; ,"MINERAL VA ORGANIK O'G'ITLARNI AMARANT YETISHTIRISHDA OZIQ MODDALAR BALANSIGA TA'SIRI. O'zbekistonda agrar sohani innovatsion rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 5-6 oktabr, 2022 yil",Academic research in educational sciences (ARES),3,
24. T. Ortikov, B. Shoniyozov, A. Makhmatmurodov and M. Mashrabov; ,"Influence of mineral and organic fertilizers on the properties of serozem-meadow soils, nutritional dynamics and productivity of amaranth", "E3S Web of Conf. Volume 462, 2023 International Scientific Conference "Fundamental and Applied Scientific Research in the Development of Agriculture in the Far East" (AFE-2023) Article Number 02017 Advances in Crop and Plant Cultivation", 462,13,1,2023, <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202346202017>
25. Toshtemirova Sarvinoz Jorabek qizi, Ismoilova Muxlisa Murtoza qizi, Ko'chgarov Islam Rustam o'g'li, Turdiyev Umarjon Uchqun o'g'li, Ibodlloyeva Sarvinoz Baxtiyor qizi, Shoniyozov Bobur Kaldarboyevich. (2023). PROSPECTS OF CULTIVATION AND PROCESSING OF KOVUL UNIQUE PLANT. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE